

XXI АСР - ИНТЕЛЛЕКТУАЛ АВЛОД АСРИ

илмий-амалий анжумани
материаллари

Қарши -2015

OMMAVIY MADANIYATNING IJTIMOIIY VAZIFALARI

Boymurodov Z.Sh., magistrant (QarDU)

Ma'lumki, madaniyat umuminsoniy hodisa, faqat bir xalqqa tegishli bo'lgan, faqat bir xalqning o'zi yaratgan sof madaniyat bo'lmaydi va bo'lishi ham mumkin emas. Har bir milliy madaniyatning asosiy qismini shu millat o'zi yaratgan bo'lsa-da, unda jahon xalqlari yaratgan umuminsoniy madaniyatning, ulushi va ta'siri bo'ladi, albatta. U barchaga baravar xizmat qiladi. Masalan, san'at va adabiyot durdonalari, me'morchilik obidalar, maqomlar, fan yutuqlari va boshqalar barchaga tegishli. Madaniyatni ikkiga – elitar (yuksak) va ommaviy (tuban) madaniyatga bo'lish mumkin. Yuqoridagi fikrlar yuksak madaniyatga xosdir. Unda umuminsoniy g'oyalar, qarashlar, nazariyalar va ta'limotlar asosiy negiz vazifasini bajaradi. Shu ma'noda asl madaniyat odamlarga ruhiy quvvat, ma'naviy ozuqa beradi, ularning bilimini yanada boyitadi.

"Ommaviy madaniyat" esa odamlarning kundalik o'tkinchi ehtiyojlariga mo'ljallangan sayoz mazmunli mahsulotlar yaratadi. Ular bir qolipdan chiqqan, standartlashgan ommaviy nusxalarda industrial usullarda ishlab chiqiladi. Ular insonning iste'molchilik psixologiyasiga mos va uni rag'batlantiradi. Ular insonni jonli hayotdan uzoqlashtirib, virtual olamida bekinib olishga yordam beradi. Buning uchun u gipervoqelikni, ya'ni shaxsning bo'rttirilgan, sun'iy kichik olamini yaratadi. Ommaviy madaniyatning asosiy xususiytlari sirasiga individual xarakterga ega ekanligi, milliylikning deyarli yo'qligi, OAV orqali tarqatilishga mo'ljallanganligini kiritish mumkin. Shu ma'noda ommaviy madaniyatning bajaradigan ijtimoiy vazifasini ham keng ko'lamda talqin qilish biroz mushkul. Har qanday madaniyat ijtimoiy hodisa sifatida ma'lum bir vazifalarni bajaradi. Ommaviy madaniyat zamonaviy jamiyatning ichki xususiyati sifatida ko'plab vazifalarni bajaradi. U odamlardan davr talablariga javob berishni taraqqiyot bilan hamqadam bo'lishni taqozo qilmoqda. Ya'ni "Zamonaviy odamni" shakllantirishga harakat qilmoqda.

Rivojlanish sur'atlarining oshib borishi odamlarda o'ylab ko'rishga imkon qoldirmasdan tezlik bilan moslashish (adaptatsiya)

zaruratini yuzaga keltirmoqda. Masalan, zamonaviy aholi vositalarini, kompyuter va ATV ni ishlatishni bilmagan odamlar o'zlarini zamondan orqada qolgan hisoblashadi va hozirgi hayot talablariga yetarlicha moslasha olmaydilar. Yoki bo'lpasa modir talablaridan kelib chiqib haqiqiy ehtiyojlari bilan hisoblashmasdan reklama orqali ongiga singdirilgan buyumlarni xarid qilmoqdalar. Bu kabi holatlar faqat maishiy hayotda, balki ma'naviy hayotda ham kuzatilmoqda. Odob-axloq, adabiyot va sa'nat, kiyinish madaniyatida bunday misollarni ko'plab keltirish mumkin. Masalan, jamoat joylari va ta'lim muassasalarida kiyinish madaniyatiga amal qilinmasligi, estetik qoidalarini chetlab o'tilishi kabi holatlar bizga ko'proq ma'lum. Albatta, taraqqiyot talabi bilan bog'liq bo'lgan zaruratdan voz kecha olmaymiz, lekin ommaviy madaniyat taklif qilayotgan "madaniyat mahsulotlarini" to'liq qabul ham qila olmaymiz. Biznigcha, madaniyatda ham axloq va nafosat mezonlari me'yorlariga amal qilmoq kerak.

Ommaviy madaniyat odamlarni real hayotdan uzoqlashtirib ularni xayollar (elluziya) olamiga yetaklaydi. Aldamchi va soxta tuyg'ularni baxsh etib turmush tashvishlaridan chalg'itgandek bo'ladi. Aslida esa bularning hammasi aldamchi his-tuyg'ular sarob. Bu odamlarda xayolot va real hayot o'rtasidagi tafovutlarning yo'qolib borishiga olib kelmoqda. Odamlar o'zi bilan o'zi ovora bo'lib o'z qobig'iga o'ralib qolishiga sabab bo'lmoqda. Turmush muammolari, orzu-istaklarning yechimi faqat xayoliy olamida ak etib real hayotda unga amaliy harakat qilishga yo'l bermayapti. Mazkur holatni "Ajoyib xayolparast" filimidagi bosh qahramonni eslash orqali yanada yorqin tasavvur qilish mumkin. Detektiv asarni o'qigan, jangari filimlarni muntazam ko'rib borgan o'quvchi yoki tomoshabin o'zini super qahramon timsolida tasavvur qila boshlaydi.

Bo'sh vaqtlardan unumli foydalana olgan kishi har jihatdan o'sadi, rivojlanadi, xulqida ijobiy xususiyatlar shakllanib boradi. Shu bois odamlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish ularni turli illatlar ta'siridan himoyalash imkonini beradi. Har bir odam qalbida uni muntazam harakatga undab turuvchi kuch, qiziquvchanlik mavjud. Shu tufayli turli xildagi virtual o'yinlar odamlar, ayniqsa yoshlar e'tiborini tortib, bo'sh vaqtini o'tkazish va dam olish uchun

ermak bo'lmoqda. Kompyuter o'yinlarini o'ynash nafaqat bo'sh vaqtni sarflash, balki dam olish hamdir.

Bizning nazarimizda, bo'sh vaqt ma'naviy kamolot vaqtidir. Masalan, kitob o'qish, shaxmat o'ynash, film tamosha qilish, muzey va spektakllarga tushish odamga yangi bilimlar berish bilan bir vaqtda dam olishi uchun ham imkon yaratadi. Kitob o'qigan kishi voqealar rivojini ongidan o'tkazib, tasavvur qilib o'zicha tahlil qilib boradi. Kino ko'rayotgan odam biroz chalg'isa voqeadan uzulib qoladi, shuning uchun u asosiy e'tiborni tasvirlar ketma-ketligiga qaratadi. Ayni vaqtda voqeani tahlili qilishga imkon qolmaydi, chunki voqealar uzluksiz davom etadi.

Ommaviy madaniyat odamlarda va jamiyatda iste'molchilik psixologiyasini rivojlantiradi. Ehtiyojlar uzliksiz ravishda o'sib borgan sayin istemolga bo'lgan talab ham o'zgaradi. Radio, televideniye va internet orqali tarqatilayotgan reklama materiallari, ko'cha va xiyobonlardagi bannerlarda namoyish etilayotgan ko'rgazmalarda "Faqat siz uchun", "Baxtingga erish", "Xizmat kafolatlangan" kabi chaqiriqlar odamlar ongini boshqarmoqda. Reklamalarning takrorlanaverishi odamlarda shu to'g'ri ekan, sifatli va kafolatli degan fikrni yuzaga keltirmoqda. Shu orqali odamlar va jamiyat ongiga ta'sir o'tkazadi.

Bugungi kunda odamlarning ijtimoiy turmush darajasi bir xillashib bormoqda. Iste'molga bo'lgan talab ham xuddi shunday asosga ega: Istemolchi zaruriy ehtiyojga qarab emas, davr va moda talabiga qarab harakat qiladigan bo'lib bormoqda. Masalan, talab darajasidagi mashinasi bor odam yangi markadagi mashina chiqsa olishga harakat qiladi. Garchi unda bunga ehtiyoj bo'lmasa-da. Yo'qsa u o'zini zamondan orqada qolgan, qoloq iste'molchi sifatida his qiladi.

Ommaviy madaniyatning yana bir vazifasi odamlarni va jamiyatni real ijtimoiy-siyosiy muammolardan chalg'itish va uning ongini boshqarish (manipulatsiya)dir. Bu orqali odamlarda davlat va jamiyat ishlariga nisbatan loqaydlik, siyosiy va iqtisodiy jarayonlarga befarqlik kabi munosabat shakllanadi. Boshqacha aytganda, ommaviy madaniyat odamlarni asl maqsad va muddaolarida uzoqlashtirmoqda. Muammoli masalalarni hal etish, ularning yechimini izlash o'rniga "Mening nima ishim bor, qornim to'q, ustum but" qabilida ish yuritishni taklif qilmoqda.

Biz ommaviy madaniyatning ayrim kamchiliklari haqida fikr

yurutdik. Maqsad uni qoralash emas, balki uning ijtimoiy foydali tomonlarini ajratib ko'rsatish bilan birgalikda asl madaniy qadriyatlarni hurmat qilish, asrab-avaylash va boyitishdir.

Ommaviy madaniyat turmush tarzimizda tobora katta o'rin egallamoqda. Unga ma'lum bir cheklovlar qo'yish imkoni yo'q. Davr odamlarda ommaviy madaniyatga nisbatan to'g'ri munosabatni shakllantirishni, uni ta'lim-tarbiya tizimida xolis va tanqidiy o'rganishni talab qilmoqda. Ommaviy madaniyat deganda, faqat uning salbiy ta'sirlarini izlash emas, balki undan himoyalaniish va foydalanishni ham hisobga olishimiz lozim.

METONIMIYA HAQIDA BA'ZI BIR MULOHAZALAR

Husanova R., (QarDU)

Metonimiya - leksik ma'nolarning ikki turi, ya'ni asosiy - mantiqiy va matnii ma'nolar orasidagi munosabat bo'lib, bu munosabat narsalar orasida aniq aloqalarning paydo bo'lishiga asoslangandir, boshqacha qilib aytganda, narsalar-hodisalar bir biriga yaqinligi tufayli birining nomini ikkinchisiga ko'chiriladi. Metanonimiya yunoncha *metonymia* - *qayta nomlash* demakdir.

Demak, metonimiya narsaning bir nomini boshqa nom bilan almashtiradi, metonimiya asosan juda xilma xil hollarda bir tushunchani boshqa bir tushuncha bilan almashtirish imkonini beradi. Masalan, sababni oqibat bilan, aniqlikni mavhumlik bilan almashtirish shu asoda ham sodir qilinadi.

Metonimiyani ikki turga, ya'ni tildagi metonimiya va nutqagi metonimiyaga ajratish mumkin. Nutqdagi metonimiyaning stilistik vazifasini mukammal aniqlab olish uchun avvalo tildagi metonimiyada ba'zi bir misollarni ko'rib chiqamiz.

Masalan, o'zbek qiziqchisi Hojiboy Tojiboyevning "Ozbekning gapi qiziq" ruknidagi hangomasini barchamiz eshitganmiz:

Navoiyni oldim qo'limga deydi. Navoiyni qo'lga olib bo'ladimi? U buyum emas-ku qo'lga ko'taradigan!? Bedilni o'qir edim deydi. Bedil kitob emas-ku!? Samovarda osh yedik deymiz. Samovar ustida o'tirib osh yeb ko'ring-chi, kuyib qolasiz...

Hojiboy Tojiboyevning mahorati shundaki, u so'zning to'g'ri va ko'chma ma'nolarini anglagan holda ko'chma ma'nolarda

76	<i>Do'stroyrova S.N.</i>	Oliy o'quv yurtlarida ma'naviyatga oid fanlarning o'quv dasturlaridagi mavjud muammolar	271
77	<i>Raxmatova N.</i>	O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida va sharq g'arb mumtoz mutafakkirlari asarlarida adolat to'g'risidagi qarashlarning hisobga olinishi	279
78	<i>Boymurodov Z.Sh.</i>	Ommaviy madaniyatning ijtimoiy vazifalari	287
79	<i>Husanova R.</i>	Metonimiya haqida ba'zi bir mulohazalar	290
80	<i>Ochilova Yu., Sh. Ashurova</i>	Nemis tilida olmoshli - ravishlar yasalishida ko'makchilarning o'rni	293
81	<i>Murtazayeva S., E. Murtazayev</i>	Nemis tili so'z hazinasining kengayishida o'zlashgan so'zlarning o'rni	295
82	<i>Husanova Z.</i>	Bobur she'riyatida Lafziy san'atlarning qo'llanishi	298
83	<i>Tojtemirova C., M.Э. Турсункулова</i>	Соғлом турмуш тарзи – саломатлик гарови	300
84	<i>Худойбердиев Ш.</i>	Бошқарувда мотивация тушунчаси.	309
85	<i>Эшқувватова М., Хамраева Ё.</i>	Доклад – искусство публичного выступления	312
86	<i>Розикова Н., Курасова Н.В.</i>	Образы-символы в повести в.распутина «прощание с матерой»	315
87	<i>Д.Т. Кенжаева</i>	Укувчиларда мустақиллигимизнинг 23 йиллигидан фахрланиш ҳамда баркамоллик сифатларини тарбиялаш технологияси	317
88	<i>Мансуров Я., Ғ. Соатов</i>	Миссионерлик ва унинг кўринишлари	322
89	<i>Жураева З. Д.Э.Шодмонова</i>	Лисоннинг нуткий воқеланишида меъёрнинг ўрни	325
90	<i>О'роқова D.</i>	Qo'shma gaplarda antiteza (o'zbek xalq maqollari misolida)	328
91	<i>Л. Холов</i>	Глобаллашув даврида таълим - тарбия самарадорлигига эришиш масалалари.	330